

PEDAGOGIK ISLOHOTLAR VA ULARNING YECHIMLARI

<https://worldlyjournals.com>

1-DEKABR, 2024

BYUDJET TASHKIOTLARIDA BYUDJETDAN TASHQARI JAMG`ARMALAR MABLAG`LARI HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH

Rixsittayeva Madinaxon Izzatilla qizi

Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti magistranti

Tel: +998917873555

Email: allayorovamadina55@gmail.com

Annotatsiya: Byudjet ijrosi jarayonida byudjetdan tashqari jamg`armalar mablag`larining shakllanishi ularning hisobini to`g`ri va aniq yuritilishi, kamchiliklar va hatoliklarga yo`l qo`ymaslik muhim hisoblanadi. Bu natijalarga erishish uchun ushbu sohani rivojlantirish, takomillashtirish zarur.

Kalit so`zlar: Byudjet, byudjetdan tashqari jamg`armalar, mablag`lar, natijalar, kamchilik va hatoliklar.

Mamlakatimiz iqtisodiyotining barcha sohalarida amalga oshirilayotgan islohotlar singari byudjet ijrosi tizimida ham qator istiqbolli o`zgarishlar amalga oshirildi. Ya`ni g`aznachilik va uning hududiy bo`limlari orqali byudjet tashkilotlari byudjetdan tashqari mablag`lari bo`yicha belgilangan tartibda kassa xarajatlari amalga oshirilmoqda. Bugungi kunda byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari barcha mablag`lari g`aznachilik ijrosiga o`tkazilib daromadlar va xarajatlar ijrosi ta`minlanmoqda.

Hozirgi kunda byudjet tashkilotlarida byudjetdan tashqari mablag`lar tushumini kengaytirishga alovida e`tibor qaratilip ularni xajmi keyingi yillarda oshib bormoqda. Bu esa byudjet tashkilotlarida byudjetdan tashqari mablag`lardan foydalanish amaliyoti oldiga katta vazifalar yuklaydi.

Davlat byudjeti ijrosi tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida byudjet tashkilotlarida byudjetdan tashqari mablag`lardan foydalanishni takomillashtirishda quyidagi masasalarga e`tibor qaratilishi maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz:

1. Byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari rivojlantirish jamg`armasi mablag`lari davlat byudjetiga undiriladigan soliqlar va yig`imlarning barcha turlaridan ozod qilinishi, bo`shab qolgan mablag`lar moddiy-texnika va ijtimoiy bazani mustahkamlashga, shuningdek, ularning hodimlarini moddiy rag`batlantirishga maqsadli yo`naltirilishi belgilangan. Lekin byudjet tashkilotlarini byudjetdan tashqari maxsus mablag`lari hisobidan soliqlar va majburiy to`lovlar bo`yicha soliq imtiyozlarini qo`llanilishi va ular hisobidan bo`shab qolgan mablag`larni qaysi maqsadda sarflash muammosi o`z yechimini topmagan. Byudjet tashkilotlarida byudjetdan tashqari mablag`lar hisobiga amalga oshirilgan xarajatlarni manbaalari bo`yicha aniq aks ettirishi uchun mulkiy qiymatliklar va ular bo`yicha fondlar, debitor, kreditor majburiyatlar mablag`lar manbaalari bo`yicha alohida ajratilib ko`rsatilishi maqsadga muvofiq bo`ladi. Bu o`z navbatida byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag`lari tahilini amalga oshirishga qulaylik yaratadi.

2. Byudjet tashkilotlarida faoliyat turiga muvofiq mahsulot (ish, xizmat)lar ishlab chiqarish bo`yicha tadbirkorlik faoliyatlari kengaymoqda. Bu xizmat turlari bo`yicha mablag`lar tushumi, xarajatlar bo`yicha uslubiy ta`minot yanada mustahkamlanishi kerak. Bunda, ta`lim xizmatlari turlari bo`yicha xarajatlar tarkibi, rivojlantirish jamg`armasi mablag`lariga kiritiladigan qismi asoslangan holda tashkil etilishi lozim.

Hozirgi kunda byudjet tashkilotlari yuritilayotgan buxgalteriya hisobi xo`jalik tashkilotlari buxgalteriyasidan faqr qilishi bois ushbu sohada talabalarni o`qitishni kengaytirish, mutaxassis kadrlar yetishtirish birinchi navbatdagi masala hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda ushbu byudjetdan tashqari mablag`larga doir qonun hujjatlarini ko`rib chiqish, ancha yil oldin qabul qilingan hujjatlarga

PEDAGOGIK ISLOHOTLAR VA ULARNING YECHIMLARI

<https://worldlyjournals.com>

1-DEKABR, 2024

o`zgartirish va qo`shimchalar kiritish, zamon talablariga, xalqaro tajribalarga mos keluvchi me`yoriy-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish zarur.

Byudjet tashkilotlarini mablag` bilan ta`minlashga doir 1999 yilda qabul qilinga Vazirlar Mahkamasining “Byudjet tashkilotlarini mablag` bilan ta`minlash tartibini takomillashtirish to`grisida”gi 414-sonli qarori hozirgi kungcha amaliyatda qo`llanilishi ma`lum. To`g`ri, bu hujjatga shu kungacha o`zgartirishlar, qo`shimchalar kiritilgan shu bilan birga ko`p bandlari o`z kuchini yo`qotgan yoki boshqa me`yoriy-huquqiy hujjatlar tarkibiga o`tkazilgan. Lekin hujjatning asosi o`sha eski holatda va yangi tahrirda qabul qilinmagan.

Bu holat o`z navbatida hujjatning takomillashtirish deb nomlanishiga zid hisoblanadi. Hozirgi kunda ushbu qarorga o`zgartirish va qo`shimchalar kiritish yuzasidan “O`zbekiston Respublikasi normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari muhokamasi” internet sahifasida muhokamaga qo`yilgan.

Ushbu muhokamaga asosan, Vazirlar mahkamasining “Byudjet tashkilotlarini mablag` bilan ta`minlash tartibini takomillashtirish to`grisida” 1999 yil 3 sentabrdagi 414-son qaroriga qo`shimcha kiritish haqida O`zbekiston Respublikasi byudjet mablag`laridan samarali foydalanish maqsadida Vazirlar Mahkamasi shunday qaror qilgan: “Byudjet tashkilotlari tomonidan xodimlarning mehnat intizomini buzganligi uchun O`zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi 181-moddasining birinchi qismi 2-bandiga muvofiq qo`llanilgan jarimalar byudjet tashkilotlarining rivojlantirish jamg`armasini shakllantirish manbai bo`lib hisoblanmaydi hamda jarimalar summasi tegishli byudjet daromadiga o`tkaziladi. Bu ish haqi xarajatlari O`zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti mablag`lari hisobidan moliyalashtiriladigan byudjetdan mablag` oluvchilarga ham tadbiq etiladi”¹

Mehnat kodeksining 181 moddasiga ko`ra hodimga mehnat intizomini buzganlik uchun ish beruvchi qo`llashi mumkun bo`lgan intizomiy jazo choralar belgilab qo`yilgan. Ushbu moddaning 2 bandiga ko`ra hodim mehnat intizomini buzgan taqdirda o`rtacha oyli ish haqqining o`ttiz foizdan ortiq bo`lmagan miqdorda jarima qo`llashi, shu bilan birga ellik foizdan ortiq bo`lmagan miqdorda ham jarima solish mumkunligi belgilangan.

Ma`lumki ta`lim muassasalari o`qitishning to`lov-kontrakt shaklidan tushgan mablag`lar hisobidan hodimlarga oylik maosh to`laydi. To`lov-kontrakt shaklidan tushgan mablag`lar byudjet tashkilotining byudjetdan tashqari jamg`armasi hisoblanadi. Shunga qaramay yuqorida qarorda keltirib o`tilgan jarimalar undirilgan taqdirda tashkilotning byudjetdan tashqari jamg`armasiga emas, davlat byudjetga qaytarilishi ta`kidlanmoqda.

Fikrimcha, Vazirlar Mahkamasining ushbu qarori faqat byudjet mablag`lari hisobidan oylik maosh to`laydigan tashkilotlarga tadbiq etilishi to`g`ri bo`ladi. Byudjetdan tashqari jamg`arma mablag`lari hisobidan oylik maosh to`lovchilarining undirgan jarimalari tashkilotning rivojlantirish jamg`armasiga tushirilishi ancha samarali hisoblanadi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:

- “Budget tashkilotlarini mablag` bilan ta`minlash tartibini takomillashtirish to`grisida” 1999 yil 3 sentabrdagi 414-son qaroriga qo`shimcha kiritish haqida ID-924.
<https://regulation.gov.uz/ru/document/924>

¹ “Budget tashkilotlarini mablag` bilan ta`minlash tartibini takomillashtirish to`grisida” 1999 yil 3 sentabrdagi 414-son qaroriga qo`shimcha kiritish haqida ID-924. <https://regulation.gov.uz/ru/document/924>

PEDAGOGIK ISLOHOTLAR VA ULARNING YECHIMLARI

<https://worldlyjournals.com>

1-DEKABR ,2024

2. A.J. To'ychiyev, H.G'. Ismoilxo'jayeva "Byudjet tashkilotlarida byudjetdan tashqari jamg'armalar mablag'lari hisobi va nazorati samaradorligini oshirish". "Xalqaro moliya va hisob" ilmiy elektron jurnalı №4-5, avgust-oktyabr, 2018 yil
3. Toshkent moliya instituti "Budget tashkilotini rivojlantirish jamg'armasi bo'yicha pul mablag'lari harakati to'g'risida"gi 2015-2018 yil hisobot ma'lumotlari asosida shakllantirildi.
4. Toshkent moliya instituti "Budget tashkilotini rivojlantirish jamg'armasi bo'yicha pul mablag'lari harakati to'g'risida"gi 2015-2018 yil hisobot ma'lumotlari asosida shakllantirildi.